

Xorijiy mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalarni samarali tashkil qilishning o‘zaro solishtirma tahlili (Xitoy misolida)

Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o‘g‘li
Xalqaro Nordik universiteti
magistranti
habibjonovusmonjon9@gmail.com
+998902772952

Annotatsiya

Ushbu maqolada Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish, ularning faoliyat yuritishi, bugungi kungacha amalga oshirilgan faoliyat natijalari hamda boshqa davlatlar uchun namuna bo`la oladigan muhim jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek qonun hujjatlari asosida Xitoyda mavjud EIZ larning iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ham tahlil ostiga olingan. Ushbu mavzuga oid bir qator mahaliy va xorijiy tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari o‘rganildi. O‘rganilgan adabiyotlarning asosiy mazmuni shundaki, mamlakatlar hududida faoliyat olib borayotgan erkin iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallashini, davlat yalpi milliy va yalpi ichki maxsulotini o‘sishida muhim o‘rin egallashini ta’kidlab o‘tishgan. Tadqiqotda asosan Xitoy mamlakatining erkin iqtisodiy zonalarning so‘nggi 10 yillik statistikasidan foydalaniib, statistik, qiyosiy-solishtirma, induksion-deduksion hamda empirik tahlil tadqiqot metodlaridan faol foydalanildi. Va yakunda mazkur maqola xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Xitoy, erkin iqtisodiy zonalar, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, iqtisodiy o‘sish, logistika, maxsus iqtisodiy zonalar, bozor segmentatsiyasi, EIZ.*

Kirish

Erkin iqtisodiy zona —mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona tolovlar, ijara, viza olish, valyuta ayriboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan boladi. EIZ turkumiga bank va sug‘urta zonalari kiradi, bu bilan bank muomalalari va sug‘urta ishlari uchun imtiyoz va kapitalning kirib kelishiga qulay sharoit yaratiladi. ElZning maxsus turi texnologik zonalardir. Bunday zonalarda yangi texnika va texnologiyani yaratish uchun imtiyozlardan xorijiy, shuningdek, milliy korxonalar va har xil tashkilotlar ham foydalanadi. Kompleks xarakterdagi alohida iqtisodiy zonalarda savdo-sanoat texnologiyasi ishlari uchun qulayliklar barpo etiladi. Bunday zonalar alohida, hamma uchun ochiq hududlar deb ataladi.

O‘zbekiston davlati miqyosida:

Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yiladi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi qonun hujjalarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.¹ Erkin iqtisodiy zona O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonaning maqomi, shuningdek uning qancha muddatga tashkil etilishi mazkur zonani tashkil etish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanadi. Erkin iqtisodiy zonaning chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Erkin iqtisodiy zonaning faoliyat ko‘rsatish muddatini uzaytirish belgilangan muddat tugashidan kamida uch yil oldin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan amalga oshiriladi.²

Erkin iqtisodiy zonaning maqomi:

- ✓ uni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan muddat tugaganidan keyin;
- ✓ uni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda nazarda tutilgan vazifalar bajarilmaganda va maqsadlarga erishilmaganda tugatiladi;

Erkin iqtisodiy zonaning maqomini tugatish to‘g‘risidagi qaror belgilangan muddat tugashidan kamida uch yil oldin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi.³

Erkin iqtisodiy zonalarning turlari:

- ✓ erkin iqtisodiy zonalar;
- ✓ erkin savdo zonalar;
- ✓ erkin ishlab chiqarish zonalar;
- ✓ erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar tarzida tuzilishi mumkin.

O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan barcha erkin iqtisodiy zonalar:

| | |
|-------------------|------------------------|
| Navoi “EIZ” | Zomin-Farm “EIZ” |
| Angren “EIZ” | Kosonsoy-Farm “EIZ” |
| Jizzax “EIZ” | Sirdaryo-Farm “EIZ” |
| Qo‘qon “EIZ” | “Qoraqalpoqiston “EIZ” |
| Namangan “EIZ” | Andijon-Farm “EIZ” |
| Xazorasp “EIZ” | Chorvoq “EIZ” |
| Termiz “EIZ” | Sirdaryo “EIZ” |
| Nukuz-Farm “EIZ” | Toshkent “EIZ” |
| Faeg‘ona “EIZ” | Buxoro “EIZ” |
| Qashqadaryo “EIZ” | Samarqand “EIZ” |

Erkin iqtisodiy zona O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan dasturga muvofiq rivojlantiriladi.

Erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish dasturi ishlab chiqarish va bozor infrastrukturasini yaratishni, alohida huquqiy tartibotni ta’minlashni, yuridik va

¹ (2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-224-sonli Qonuni tahririda—O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 424-modda).

² (3-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-224-sonli Qonuni tahririda—O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 424-modda)


³ (4-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-224-sonli Qonuni tahririda—O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 424-modda)

jismoniy shaxslarning faoliyatini iqtisodiy rag‘batlantirish choralarini o‘z ichiga oladi.⁴

Erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish dasturini moliyaviy ta’minlash zonaning o‘z resurslari hamda xususiy va boshqa manbalardan mablag‘lar jalb etish, shu jumladan xalqaro dasturlar hisobiga, shuningdek mazkur hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga respublika budgetidan va mahalliy budgetdan ajratiladigan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

Xitoy mamlakati miqyisoda:

Erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun aniq va barqaror qoidalarni ta’minlashi kerak. Yo‘llar, portlar, telekommunikatsiya va kommunal xizmatlar kabi infratuzilma investorlarni jalb qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillari kabi imtiyozlar biznes yuritish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Shuningdek, EIZning geografik joylashuvi bozorlar va resurslarga oson kirishni ta’minlashi kerak.



rasm-1. Xitoy mamlakatida mavjud bo‘lgan erkin iqtisodiy va erkin savdo zonalar (2013-2022)

Xitoyda tashkil etilgan eng mashhur erkin iqtisodiy zonalar:

Erkin iqtisodiy zonalar soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillari va yengillashtirilgan tartibga solish kabi imtiyozlarni taqdim etish orqali

⁴(10-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-sentabrdagi O’RQ-224-sonli Qonuni tahririda — O’R QHT, 2009-y., 39-son, 424-modda)

xorijiy investitsiyalar va savdoni rivojlantirishga qaratilgan maxsus iqtisodiy rayonlardir. Xitoyda 1980-yillardan boshlab EIZlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Mana, Xitoyning eng mashhur erkin iqtisodiy zonalari:

✓ **Shenzhen erkin iqtisodiy zonası**

1980 yilda tashkil etilgan Shenzhen maxsus iqtisodiy zonası (SEZ) Xitoydagı birinchi EIZlardan biri edi. Gonkong yaqinidagi Guangdong provinsiyasida joylashgan mazkur zona xorijiy sarmoyalarni jalg qilish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynadi. Hududda xorijiy investorlar uchun turli imtiyozlar, jumladan, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan ma’muriy tartib-taomillar, soddalashtirilgan bojaxona tartib-taomillari mavjud. Bugungi kunda Shenchjen elektronika ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali sanoat uchun asosiy markaz hisoblanadi.

✓ **Shanxay Pudong yangi hududi**

Shanxay Pudong yangi hududi 1990 yilda Xitoyning islohot va ochiq siyosati uchun pilot loyiha sifatida tashkil etilgan. Shanxayning sharqiy qismida joylashgan zona 1200 kvadrat kilometrdan ortiq maydonni egallaydi. Mazkur zonada xorijiy investorlar uchun turli imtiyozlar, jumladan, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan bojaxona tartib-taomillari, soddalashtirilgan ma’muriy tartib-qoidalar mavjud. Bugungi kunda Pudong Xitoyning yirik moliyaviy va tijorat markazi hisoblanadi.

✓ **Tyantszin Binxay erkin iqtisodiy hududi**

Tianjin Binxay yangi hududi 2005 yilda Xitoyning islohot va ochiq siyosati uchun keng qamrovli tajriba zonası sifatida tashkil etilgan. Tyantszining janubiy qismida joylashgan zona 2200 kvadrat kilometrdan ortiq maydonni egallaydi. Mazkur zonada xorijiy investorlar uchun turli imtiyozlar, jumladan, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan bojaxona tartib-taomillari, soddalashtirilgan ma’muriy tartib-qoidalar mavjud. Bugungi kunda Binxay logistika, moliya va yuqori texnologiyali sanoatning asosiy markazi hisoblanadi.

✓ **Chjuxay Xenqin erkin iqtisodiy hududi**

Zhuhai Hengqin yangi hududi 2009 yilda Xitoyning islohot va ochiq siyosati uchun pilot loyiha sifatida tashkil etilgan. Chjuxay shahrining janubiy qismida joylashgan zona 100 kvadrat kilometrdan ortiq maydonni egallaydi. Mazkur zonada xorijiy investorlar uchun turli imtiyozlar, jumladan, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan bojaxona tartib-taomillari, soddalashtirilgan ma’muriy tartib-qoidalar mavjud. Bugungi kunda Hengqin turizm, sog‘liqni saqlash va yuqori texnologiyali sanoat uchun asosiy markaz hisoblanadi.

✓ **Xiamen erkin savdo zonası**

Xiamen erkin savdo zonası 1988 yilda Xitoyning islohot va ochiq siyosati uchun keng qamrovli tajriba zonası sifatida tashkil etilgan. Fujian provinsiyasining Syamen shahrida joylashgan bu zona 4 kvadrat kilometrdan ortiq maydonni egallaydi. Mazkur zonada xorijiy investorlar uchun turli imtiyozlar, jumladan, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan bojaxona tartib-taomillari, soddalashtirilgan ma’muriy tartib-qoidalar mavjud. Bugungi kunda Xiamen elektronika ishlab chiqarish va Tayvan bilan bo‘g‘ozlar bo‘ylab savdoning asosiy markazidir.

Adabiyotlar tahlili

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish imkoniyatlari va rivojlantirish yo‘nalishlari mavzusida xorijlik bir qator olimlar, xususan Mishel Ruta, Matias Herrera Dappe⁵ (transport sohalari bo‘yicha katta iqtisodchi), Somik Lall va Chunlin Chjan (xususiy sektor yetakchi mutaxassisi), Erik Cherchill va Kristina Konstantinesku⁶ (iqtisodchi, makroiqtisodiyot, savdo va investitsiyalar), Mathilde Lebrand (transport sohalari bo‘yicha iqtisodchi) va Alen Mulabdik (makroiqtisodiyot va savdo-iqtisodiyot sohalarida tahlilchi) kabi iqtisodichi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.⁷ Xorijlik tadqiqotchilar xorijiy mamlakatlarda EIZ faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qimmatli fikrlarni bildirdilar. EIZlarning muvaffaqiyati institutsional sifat, biznes muhiti, sanoat siyosati va mintaqaviy rivojlanish strategiyasi kabi bir qancha omillarga bog‘liqligini ta’kidlab o‘tishgan. Natijada mamlakat hududida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilinishi mamlakat yalpi ichki maxsulotini o‘sish sura’tini 1,6 foizdan 5,4 foizgacha o‘sishini tahlil qilishgan. Shuningdek tadqiqotchilar mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilinishini umumiy holatda ijobjiy ekanligini ta’kidlab o‘tishgan.

Huddi shu mavzuda mamlkatimiz miqyosida bir qator iqtisodichi olim va tadqiqotchilar, xususan, Shukhrat Abdurakhmanov, Gulnara Karimova, Azizbek Khudoykulov, Nadir Djanibekov, Feruza Kholmuminova, Jamshid Normatov, Muzaffar Jorayev⁸, Dilshod Rakhmonov, Shahlo Turdikulova, Shavkat Salikhov kabi tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarini olib borishgan.⁹

Tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning faoliyatining samarali tashkil etilishi mamlakat yalpi ichki mahsulotiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishini shuningdek tadqiqotchilar hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistondagi EIZlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TDI) jalb qilish va eksportni rag‘batlantirish orqali mamlakat iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shgan. Masalan, 2017-2012 yillar davomida EIZlar 5,2 milliard dollardan ortiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qildi, bu O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning umumiy oqimining qariyb 34,2 foizini tashkil etdi. Xuddi shu davrda EIZlar O‘zbekiston umumiy eksportining qariyb 13 foizini tashkil etganligini tadqiqotchilarining izlanishlari natijasida ko‘rshimiz mumkin.

Tadqiqotchilarimizning fikriga ko‘ra, ushu EIZlar har yili 3,2 milliard dollargacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etishi va 62 mingdan ortiq ish o‘rinlari yaratilgan. Bu O‘zbekiston YaIM o‘sishini yiliga 1-2 foizga oshirishi mumkinligini ta’kidlab o‘tishgan.

Tadqiqotchilarining xulosasiga ko‘ra shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, eksportni rag‘batlantirish, ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlab o‘tishgan.

⁵ Diamond. W. and Diamond. D.(1986), ”Tax-Free Trade Zones of the World”, Matthew Bender, New York

⁶ Meng Guangwen. Erkin iqtisodiy zonalar nazariyasi va amaliyoti: Xitoy Xalq Respublikasi, Tyanjin shahri misoldida. Tyantszin, 2003 yil.

⁷ Meng Guangwen. Tianjin / People’s Republic of China. Oral Examination: 14/02/2003

⁸ Elchi Sirin, “Mapping research and innovation in the Republic of Uzbekistan”, 2020
ISBN: 978-92-3-100401-8

⁹ Korea Development Institute: “Development of Navoi Free Industrial Economic Zone in Uzbekistan” aprel 2010

Metodoligiya

Xorijiy mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini samarali tashkil haqidagi tadqiqotimizning metodologiyasida biz bir nechta tadqiqot metodlaridan, xususan qiyosiy va solishtirma tahlil, induksiya-deduksiya, shuningdek empirik tadqiqot metodlaridan faol foydalanildi. Ushbu turdagи tadqiqot: tadqiqotning asosiy gipotezasini aniqlash, taqqoslash uchun eng optimal, hozirda eng dolzarb mamlakatni tanlash, statistik ma'lumotlarni to'plash, shuningdek to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Xususan, erkin iqtisodiy zonalarni samarali tashkil qilish mavzusini yoritishda qo'llanilgan solishtirma tahlil va induksiya-deduksiya tadqiqot metodlaridan foydalanişdan asosiy maqsadimiz, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish to'g'risida umumiyl tushuncha olish, tadqiqotning qat'iyligi va aniqligini ta'minlash, ma'lumotlar asosida aniq kuzatuvlar (induksiya) dan umumiyl tamoyillarni xulosa qilish, yoki umumiyl tamoyillar(deduksiya) dan aniq xulosalar chiqarish orqali statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishdan iboratdir.

Tahlil va natijalar

Xitoydagи erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) xorijiy sarmoyalarni jalg qilish, eksportni rag'batlantirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu zonalarni samarali tashkil etishning qiyosiy tahlili ularning muvaffaqiyat omillari va ilg'or tajribalari haqida qimmatli tushunchalarni berish mumkin. Xususan:

— *Siyosat muhiti*: Xitoyda EIZlarni tashkil etish va faoliyatini tartibga soluvchi yaxshi tashkil etilgan qonunchilik bazasi mavjud. Hukumat tadbirkorlik sub'ektlarini ushbu zonalarda o'z faoliyatini yo'lga qo'yishga rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan tartibga solish va infratuzilmaga kirish kabi turli siyosatlarni amalgalashdi.

— *Infratuzilmani rivojlanish*: Xitoyda EIZlarni samarali tashkil etishning asosiy jihatlaridan biri bu infratuzilmani rivojlanishiga qaratilgan. Xitoy hukumati biznesni jalg qilish va savdoni osonlashtirish uchun ushbu zonalardan ichida zamona viy transport tarmoqlari, aloqa tizimlari va sanoat parklarini qurishga katta miqdorda sarmoya kiritdi.

— *Sanoat klasterlari*: Xitoyda EIZlarning muvaffaqiyatiga hissa qo'shadigan yana bir muhim omil - bu ushbu zonalardan doirasida sanoat klasterlarining rivojlanishi. Tegishli tarmoqlarni birlashtirib, EIZlar sinergiya yaratadi, bilim almashishni rag'batlantiradi va global miqyosda raqobatbardoshlikni oshiradi.

— *Xorijiy investitsiyalarini jalg qilish*: Xitoyning xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo'yicha faol yondashuvi EIZlarni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynadi. Hukumat transmilliy korporatsiyalarni ushbu zonalarda o'z ishtirokini o'rnatishga rag'batlantirish uchun imtiyozli soliq rejimi, soddalashtirilgan bojxonalarining tahlili va malakali ishchi kuchidan foydalanish kabi imtiyozlarni taklif qiladi.

— *Tartibga soluvchi muhit*: EIZlarning uzluksiz ishlashi uchun qulay tartibga solish muhiti zarur. Xitoy byurokratik qog'ozbozlikni kamaytirish, tasdiqlash jarayonlarini soddalashtirish va ushbu zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun bir martalik xizmat ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlarni amalgalashdi.

Ushbu elementlarni doimiy ravishda takomillashtirish va moslashtirish orqali Xitoy iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xorijiy investitsiyalarini jalg qilish uchun EIZlardan muvaffaqiyatli foydalandi.

Xitoy olimlari erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdan oldin AQSh, Yaponiya, Gongkong, Singapur, Tayvanlarni tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqishganligi ular yuritgan erkin iqtisodiy zonalar siyosatida ham o'z aksini topgan.

1. O'z mamlakati hududida EIZlarni yaratib, Xitoy bir qancha foydali tomonlarga ega bo'ladi:

- ✓ birinchidan, ushbu yo'1 bilan Xitoy hukumati chet el investitsiyalarini jalg etish uchun qulay imkoniyatlar va sharoitlar yaratadi;
- ✓ ikkinchidan, xorijiy investitsiyalaridan tashqari mamlakatga yangi texnologiyalar va yetakchi texnika kirib keladi;
- ✓ uchinchidan, ishchi o'rinnari etishmaslik muammosi qisman hal qilinadi;
- ✓ to'rtinchidan, tabiiy resurslardan samaraliroq foydalaniladi;
- ✓ beshinchidan, eksport foydasi ancha oshadi;
- ✓ oltinchidan, "maxsus hududlar"ning tezroq rivojlanishi, butun iqtisodiyot taraqqiy etishiga olib keladi.

2. Erkin iqtisodiy zonalarga ta'sir ko'rsatadigan omillar:

- ✓ qulay geografik joylashuv;
- ✓ ishchi kuchining ko'pligi va arzonligi;
- ✓ iqtisodiy imtiyozlar;
- ✓ hududlar rivojlanishi uchun mamlakatlardan resurslarning kirib kelishi.


3. Xitoy EIZlarlarining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- ✓ bozor tomonidan tartibga solish tamoyillari asosidagi mustaqil iqtisodiy rivojlanish;
- ✓ chet el investitsiyalariga tayanish;
- ✓ asosiy ustuvor tarmoq
- ✓ sanoat;
- ✓ ishlab chiqarishning eksportga yo'naltirilganligi, import xomashyosini keng jalg etish;
- ✓ katta milliy mintaqalarni kiritish;
- ✓ EIZlarlarning mamlakatning qolgan hududlari bilan faol o'zaro munosabati;
- ✓ soliq tizimi.

4. Xitoya EIZlarlarni tashkil etishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:


- ✓ xorijiy kapitalni jalg qilish;
- ✓ rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or texnologiyani va menejment tajribasini qabul qilish;
- ✓ samarador ish joylarini yaratish yo'li bilan, nafaqat, aholi bandligi darajasini ko'tarish, balki, aholining turmush darajasini oshirish, mamlakat ijtimoiy muhitini barqarorlashtirishga erishish;
- ✓ eksportni ko'paytirish yo'li bilan valyuta tushumlarini oshirish;
- ✓ chet el kapitalidan eng unumli tarzda foydalanish;

- ✓ xalqaro iqtisodiy va texnologik hamkorlik darajasini oshirish iqtisodiy va texnologik axborotni yig‘ish, xorijiy mamlakatlar hamkorlik va tashqi savdo sohasida band bo‘ladigan kadrlarni tayyorlash;
- ✓ ijtimoiylashgan keng masshtabda ishlab chiqarishni boshqarishdagi xorij tajribasini o‘rganish;
- ✓ zamonaviy texnologiyalar asosida yuqori ilmiy sig‘imli sanoat korxonalari turlarini yaratish;
- ✓ yangi turdag'i va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning xalqaro ko‘lamda raqobatbardoshligini ta’minlash;
- ✓ ichki sanoatga e’tibor bergen holda, asosiy e’tiborni tashqariga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni qurish, sanoat, savdo va qishloq xo‘jaligi integratsiyasi, chorvachilik, baliqchilik va turizmni bir vaqtida rivojlantirish;
- ✓ EIZlarda aholi jon boshiga daromad miqdorini jadal oshirish;
- ✓ EIZlar joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni Gong Kong, Singapur va boshqa yangi industrial davlatlaridagi kabi rivojlantirish;
- ✓ xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish asosida iqtisodiyotni divresifikatsiyalash;
- ✓ butun mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini rag‘batlantirish;
- ✓ arzon va ortiqcha ishchi kuchi hamda boy xomashyo salohiyatidan to‘g‘ri foydalanish.




rasm-1. 2013 yildan 2023 yilgacha Shanhay erkin iqtisodiy zonasida tovarlar eksporti qiymati (mld, dollar)

Yo‘qorida berib o‘tilgan diagrammadan shuni ko‘rishimiz mumkinki, Xitoy mamlakati hududidagi eng yirik erkin iqtisodiy zona hisoblangan Shanhay iqtisodiy zonasining so‘nggi 10 yillik tovar eksport qiymati ko‘rsatilingan. Berilgan ma'lumotlarga ko‘ra, so‘ngi o‘n yillikda maxsulot eksporti bo‘yicha eng past ko‘rsatkich 2016 yilda 2,106 milliard dollarni, eng yo‘qori ko‘rsatkich 3,506 milliard dollarni tashkil qilib, 2016 yildan 2023 yillar oralig‘ida o‘rtacha 2,601 milliard dollarni tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm: 2013 yildan 2022 yilgacha Xitoyning erkin iqtisodiy zonalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yillik oqimi (milliard AQSh dollarida)¹⁰

Yo'qorida berib o'tilgan diagrammadan shuni ko'rishimiz mumkinki, Xitoy mamlakatining hududida joylashgan erkin iqtisodiy zonalarga kiritilgan xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi berib o'tilgan. Unga ko'ra, 2013 yildan 2022 yil oraliq'ida erkin iqtisodiy zonalarga kiritilgan o'rtacha investitsiyalar hajmi 145,5 milliard dollarni, eng past ko'rsatkich 2013 yilda 123,5 milliard dollar va eng yo'qori ko'rsatkich 2022 yilda 185,9 milliard dollarni tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu investitsiyalarnini 5-8% i ishlab chiqarish sohasiga, 4% i logistika sohasiga yo'naltirilganligini ko'rishimiz mumkin.



3-rasm: 2013-2022 yillar oraliq'ida EIZda amalga oshirilgan tovar va xizmatlarning eksport hajmi¹¹ (milliard AQSH dollar)

Qo'yidagi 3-grafikda berib o'tilgan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2013 yildan 2023 yillar oraliq'ida Xitoydagi EIZlari tomonidan ishlab chiqarilgan

¹⁰ "The Role of China's Pilot Free Trade Zones in Promoting Institutional Innovation, Industrial Transformation and South-South Cooperation", Journal: United Nations conference on trade and development, Geneva, may 2023. ISBN: 978-92-1-358616-7.

¹¹ "The Role of China's Pilot Free Trade Zones in Promoting Institutional Innovation, Industrial Transformation and South-South Cooperation", Journal: United Nations conference on trade and development, Geneva, may 2023. ISBN: 978-92-1-358616-7.

tovar va xizmatlar eksportining umumiyligi berib o'tilgan. Unga ko'ra, so'nggi 10 yil ichida Xitoy EIZlari o'rtacha 273,4 milliard dollarlik maxsulot eksportini amalga oshirgan. Mos ravishda huddi shu vaqt oraliq'ida eng past ko'rsatkich 2016 yilda 198 milliard dollar, eng yo'qori ko'rsatkich esa 426 milliard dollarni tashkil qildi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Xitoyda mavjud bo'lgan erkin iqtisodiy zonalrning bugungi kundagi samaradorlik ko'rsatkichlari boshqa davlatlardagiga qaraganda bir necha bor yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, Xitoy korxonalari jahon maishiy texnika mahsulotlarining deyarli 1/3 qismini ishlab chiqarib dunyo bozorlariga joylashtirmoqdalar. Nafaqat Xitoyning ichkarisida qulay investitsiya muhitini vujudga kelgan bo'lib, investor va faol investitsiyalarning mustahkam kuchi butun dunyo bo'ylab tarqalmoqda. Shuningdek, Xorijiy mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalarni samarali tashkil etishning qiyosiy tahlili, xususan, Xitoya e'tibor qaratilishi bir qancha muhim fikrlarni olib berdi. Xitoy xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va xalqaro savdoni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynagan erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va boshqarishda muvaffaqiyat qozondi. Xitoy hukumatining faol siyosati, infratuzilmani rivojlantirish, tartibga solinadigan tartibga solish bazasi va strategik joylashuvi ushbu zonalarning muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo'shdi.

Takliflar:

- *Siyosat bo'yicha tavsiyalar:* Qiyosiy tahlilga asoslanib, boshqa mamlakatlarga Xitoyning erkin iqtisodiy zonalar bilan bog'liq ba'zi muvaffaqiyatli siyosatlarini qabul qilishni ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Bu xorijiy investorlarni rag'batlantirish, byurokratik tartib-qoidalarni soddalashtirish, barqaror huquqiy muhitni ta'minlashni o'z ichiga oladi.
- *Infratuzilmani rivojlantirish:* Erkin iqtisodiy zonalarda infratuzilmaga sarmoya kiritish ularning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. O'z hududlarini tashkil etish yoki kengaytirish istagini bo'lgan mamlakatlar biznesni jalb qilish va savdoni osonlashtirish uchun infratuzilmani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.
- *Xalqaro hamkorlik:* Muvaffaqiyatli erkin iqtisodiy zonalarga ega bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik o'zaro manfaatlarga olib kelishi mumkin. Eng yaxshi tajribalarni almashish, bilim almashish va qo'shma korxonalar global miqyosda ushbu zonalar samaradorligini yanada oshirishi mumkin.
- *Normativ-huquqiy baza:* Erkin iqtisodiy zonalarning samarali ishlashi uchun aniq va shaffof normativ-huquqiy baza muhim ahamiyatga ega. Mamlakatlar xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun aniq qoidalari va qoidalarga ega biznes uchun qulay muhit yaratishga e'tibor qaratishlari kerak.
- *Rag'batlantirish strategiyalari:* samarali rag'batlantirish strategiyalari biznesni erkin iqtisodiy zonalarga jalb qilishning kalitidir. Marketing harakatlari ushbu zonalarda faoliyat yuritishning soliq imtiyozlari, malakali ishchi kuchidan foydalanish va yirik bozorlarga yaqinlik kabi afzalliklarini ta'kidlashi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xitoy va boshqa mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishini o‘rganish orqali global miqyosda bunday zonalarning samaradorligini oshirish uchun qimmatli saboqlarni olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. (2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-224-sonli Qonuni tahririda— O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 424-modda).
2. (3-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-224-sonli Qonuni tahririda— O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 424-modda)
3. (4-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-224-sonli Qonuni tahririda— O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 424-modda)
4. (10-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-224-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 424-modda)
5. Vaxabov A.B va boshqalar. “Xorijiy investitsiyalar”. T: “Moliya”.2010.Zoilboev, J. (2022). “Erkin iqtisodiy zonaning davlat iqtisodiyoti uchun ahamiyati”. Yevroosiyo Akademik tadqiqotlar jurnali, 2(12), 1379-1385.
6. Zoilboev, J. (2022). “Erkin iqtisodiy zonalar tushunchasi va xususiyatlari”. Jahon menejment va huquq byulleteni, 12, 56-59.
7. Korea Development Institute: “Development of Navoi Free Industrial Economic Zone in Uzbekistan” aprel 2010.
8. “The Role of China’s Pilot Free Trade Zones in Promoting Institutional Innovation, Industrial Transformation and South-South Cooperation”, Journal: United Nations conference on trade and development, Geneva, may 2023. ISBN: 978-92-1-358616-7.
9. Мотовитс Т.Г, Мотовитс Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. –Забаровск: Издательство ТОГУ, 2017. –С. 35.
10. Meng Guangven. Erkin iqtisodiy zonalar nazariyasi va amaliyoti: Xitoy Xalq Respublikasi, Tyanjin shahri misolida. Tyantszin, 2003 yil.
11. Doktor Samir Hamruni (Bosh ijrochi direktor va muallif) .“Outlook”, Jahon erkin zonalari tashkiloti. 2018.
12. Veronika Yu. Maslixina. "Rossiyadagi maxsus iqtisodiy zonalar: natijalarni baholash va rivojlanish istiqbollari". Iqtisodiyot va moliya masalalari xalqaro jurnali, 2016 yil
13. Elchi Sirin, “Mapping research and innovation in the Republic of Uzbekistan”, 2020
14. ISBN: 978-92-3-100401-8

Foydalanilgan internet resurslari

1. http://www.npc.gov.cn/zgrdw/englishnpc/Constitution/node_2825.htm
2. http://www.npc.gov.cn/zgrdw/englishnpc/Constitution/2007-11/15/content_1372963.htm
3. <http://uza.uz/uz/business>
4. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374566>
5. <https://archives.kdischool.ac.kr/bitstream/11125/47656/1/Development%20of%20Navoi%20Free%20Industrial%20Economic%20Zone%20in%20Uzbekistan%20%28English%29.pdf>
6. https://unctad.org/system/files/official-document/diaeia2019d2a5_en.pdf